



ZIYORAT TURIZMIDA TARIXIY OBIDALARING O'RNI

Djumaeva Dilafruz
Gid ekskurovod Registon ansamblı

Annotatsiya. Ushbu maqolada ziyyarat turizmi tushunchasi, uning turizm sohasi ichidagi o'rni va ayniqsa tarixiy obidalar bilan bog'liq jihatlari tahlil qilinadi. Tarixiy va diniy obidalar ziyyoratchilar uchun nafaqat ibodat joyi, balki madaniy-ma'rifiy meros manbai sifatida ahamiyat kasb etadi. Maqolada O'zbekiston misolida tarixiy ziyyarat maskanlarining turizm rivojiga ta'siri, ularni saqlash va xalqaro darajada tanitish bilan bog'liq muammolar va ularning yechimlari haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ziyyarat turizmi, tarixiy obidalar, diniy meros, madaniy turizm, O'zbekiston, sayyoqlik infratuzilmasi.

KIRISH

Ziyyarat turizmi – bu kishilarning muqaddas, diniy va tarixiy ahamiyatga ega joylarga bo'lgan safarlarini o'z ichiga olgan turizm turi bo'lib, u ko'proq ma'naviy-ma'rifiy va ruhiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, musulmon aholiga ega bo'lgan O'zbekiston kabi davlatlarda ziyyarat turizmining o'rni va salmog'i yuqori. Bu turdag'i sayohatlar odatda masjidlar, maqbaralar, qadamjolar, tarixiy madrasa va ziyyoratgohlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, aynan tarixiy obidalar ushbu yo'nalişning asosini zaminini tashkil etadi.

ASOSIY QISM

Tarixiy obidalar o'zida diniy, madaniy va me'moriy ahamiyatni jamlagan noyob yodgorliklar bo'lib, ular nafaqat dindorlar, balki tarix va madaniyatga qiziquvchi keng jamoatchilikni ham o'ziga jalb etadi. Masalan, Imom Buxoriy maqbarasi (Samarqand), Xoja Ahmad Yassaviy ziyyoratgohi (Turkiston), Shayx Zayniddin maqbarasi (Toshkent) singari obidalar har yili minglab mahalliy va xorijiy ziyyoratchilarni qabul qiladi. Bu obidalar diniy qadriyatlarni asrash bilan birga, tarixiy shaxslar hayoti va ilmiy merosini eslatib turadi [1].

Tarixiy-diniy obidalar orqali ziyyoratchilar o'z milliy va diniy o'zligini anglaydi. Bu borada ziyyarat turizmi yosh avlodning ma'naviy tarbiyasida ham muhim rol o'ynaydi. Ziyyoratchilar tarixiy joylarga tashrif buyurib, o'z ajdodlari hayoti, ularning ilmiy-ruhiy merosi bilan yaqindan tanishadilar. Bu esa madaniy merosni anglash va asrab-avaylash tuyg'usini shakllantiradi.



Ziyorat turizmi rivojida tarixiy obidalarni saqlash, restavratsiya qilish va ular atrofida qulay infratuzilma yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘pgina holatlarda obidalar joylashgan hududlarda yo‘llar, mehmonxonalar, yo‘l-yo‘riq belgilarining yetishmasligi ziyoratchilar uchun qiyinchilik tug‘diradi. Shuningdek, obidalar haddan ortiq inson tashrifi tufayli tabiiy yemirilish xavfiga duch keladi. Shu boisdan, turizm va merosni saqlash o‘rtasida muvozanat bo‘lishi lozim [2].

Ziyorat turizmi orqali tarixiy obidalarni xalqaro maydonga tanitish imkoniyati mavjud. UNESCO ro‘yxatiga kiritilgan obidalar (masalan, Xiva shahri, Samarqandning Registon majmuasi) xorijiy ziyoratchilar oqimini jalg qiladi. Bu esa turizm iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish barobarida, O‘zbekistonning xalqaro madaniy imijini ham mustahkamlaydi.

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar yordamida tarixiy obidalarni keng ommaga yetkazish, ularning tarixiy-ma’naviy ahamiyatini tushuntirishning yangi usullari ishlab chiqilmoqda. Virtual ekskursiyalar, audio gidlar, mobil ilovalar va QR-kodli axborot tizimlari ziyoratchilar tajribasini boyitishga xizmat qiladi. Bu esa ayniqsa yoshlar orasida tarixga qiziqishni oshirishga xizmat qiladi.

Ziyorat turizmi doirasida tarixiy obidalar faqat diniy marosimlar o‘tkaziladigan joy sifatidagina emas, balki ijtimoiy va madaniy muloqot maydoni sifatida ham faoliyat yuritadi. Bu jihat ayniqsa tarixiy yodgorliklar atrofida shakllangan qadimiy an'analar, urf-odatlar, xalq og‘zaki ijodi va mahalliy hunarmandchilik faoliyatlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bois, tarixiy obidalarni ziyorat qilish jarayoni ko‘pincha nafaqat ruhiy poklanish, balki tarixiy ong, milliy g‘urur va o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantiruvchi kompleks hodisaga aylanadi [3].

Masalan, Samarqanddagi Shohi Zinda majmuasi yoki Buxorodagi Bahouddin Naqshband maqbarasi nafaqat diniy markaz, balki xalqning tarixiy xotirasi, milliy iftixori va qadimiy me’moriy merosining uzviy tarkibiy qismidir. Ziyoratchilar bu obidalarga tashrif buyurar ekanlar, o‘z shaxsiy e’tiqodlarini mustahkamlash bilan birga, ajdodlarimiz yaratgan ilm, san’at va madaniyat yodgorliklariga bevosita guvoh bo‘ladilar.

Shuningdek, tarixiy obidalar atrofida shakllangan afsona va rivoyatlar ham ziyorat turizmining emotsional va ruhiy jihatlarini boyitadi. Har bir maqbara yoki qadamjo o‘ziga xos tarixiy kontekst va og‘zaki hikoyalar bilan boyitilgan bo‘lib, ular ziyoratchilar ongida muqaddaslik va sadoqat tuyg‘ularini mustahkamlaydi. Bu jihat, o‘z navbatida, turizmga nafaqat informatsion, balki simvolik va identifikatsion mazmun yuklaydi.

Bundan tashqari, tarixiy obidalar ziyoratchilarni o‘ziga jalg etuvchi estetik va me’moriy jozibaga ham ega. Ularning me’moriy uslubi, bezaklari, calligrafik





yozuvlari, koshin ishlari va geometrik naqshlari insonda nafaqat hayrat, balki estetik zavq va ilhom uyg'otadi. Bu san'at asarlari orqali o'tmishdagi mutafakkirlar dunyoqarashi, ilohiylik va go'zallikni idrok etish darajasi namoyon bo'ladi. Demak, ziyyarat turizmi bu jihatdan ham ta'limiy va tarbiyaviy vazifani bajaradi [4].

Yana bir muhim omil – bu tarixiy obidalar orqali mahalliy aholi hayotida turizmning barqaror iqtisodiy manba sifatida shakllanishidir. Ziyyarat maskanlariga yaqin joylarda xizmat ko'rsatish tarmoqlari – masalan, yo'riqchilar, mehmonxonalar, ovqatlanish shoxobchalari, esdalik sovg'alari ishlab chiqaruvchi hunarmandlar faoliyati faollashadi. Bu esa iqtisodiy jihatdan ko'plab oilalarning daromad manbaini kengaytiradi, bandlikni oshiradi, ayni paytda milliy madaniyat mahsulotlarining saqlanishiga va rivojlanishiga turtki beradi.

XULOSA VA MUNOZARA

Ziyyarat turizmi va tarixiy obidalar o'zaro ajralmas tushuncha bo'lib, ular jamiyatning ma'naviy, madaniy va iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Tarixiy obidalarni ziyyarat maskaniga aylantirish orqali nafaqat turizm salohiyati oshadi, balki tarixiy-madaniy merosga bo'lgan hurmat va e'tibor ham kuchayadi. Bunda davlat siyosati, mahalliy hokimiyatlar, tadbirdorlar va fuqarolarning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixni asrash orqali keljakni barpo etish mumkin.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Ziyo, Sh. (2019). Ziyyarat turizmining nazariy va amaliy asoslari. Samarqand: Ilm ziyo.
2. UNESCO World Heritage Centre. (2022). Cultural Heritage and Sustainable Tourism.
3. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi. (2021). Ziyyarat turizmi konsepsiysi.
4. Nasriddinov, M. (2020). Tarixiy obidalar va ziyyarat maskanlari: saqlash va rivojlantirish yo'llari. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.

